

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/04.06.2020.Ped.70.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON-FINLANDIYA PEDAGOGIKA INSTITUTI

ACHILOV O‘TKIR ISOMITDINOVICH

**DIDAKTIK TAMOYILLAR ASOSIDA PEDAGOGIK TA’LIMY
RESURSLARNI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (pedagogika fanlari)

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Qarshi – 2025

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Achilov O‘tkir Isomitdinovich

Didaktik tamoyillar asosida pedagogik ta’limiy resurslarni takomillashtirish
metodikasi 5

Ачиллов Уткир Исомитдинович

Методика совершенствования педагогических образовательных ресурсов
на основе дидактических принципов 23

Achilov Utkir Isomitdinovich

Methodology for improving pedagogical educational resources based on didactic
principles 45

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 49

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/04.06.2020.Ped.70.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON-FINLANDIYA PEDAGOGIKA INSTITUTI

ACHILOV O‘TKIR ISOMITDINOVICH

**DIDAKTIK TAMOYILLAR ASOSIDA PEDAGOGIK TA’LIMY
RESURSLARNI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (pedagogika fanlari)

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Qarshi – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/Ped8615 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.qarshidu.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Mardanov Eshim Muradovich
pedagogika fanlar nomzodi, dotsent

Rasmiy opponent:

Turdiyev Shoxruh Razzoqovich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Umarov Lutfillo Murodillayevich
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Navoiy davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/04.06.2020.Ped.70.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “_____” _____ kuni soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 180119, Qarshi sh., Ko‘chabog‘ ko‘chasi, 17-uy. Tel.: (+998 75) 221-21-04, faks: (+998 75) 220-02-10, e-mail: kasu_info@edu.uz). Qarshi davlat universiteti, Pedagogika fakulteti, 217-xona.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bilan Qarshi davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 180119, Qarshi sh., Ko‘chabog‘ ko‘chasi, 17-uy. Tel.: (+998 75) 221-21-04).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “_____” _____ kuni tarqatildi
(2025-yil “_____” _____ dagi _____ -raqamli reyestr bayonnomasi).

R.D. Shodiyev

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, p.f.d.,
professor

I.B. Kamolov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi,
p.f.d. (DSc), professor

Sh.U. Nurullayeva

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi, p.f.d.
(DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahondagi mamlakatlarning hozirgi davr rivojlanishidagi raqobatbardoshligi davlat va jamiyat rivojlanishining muhim ko'rsatkichi hisoblanadi. Jamiyat hayotining barcha sohalariga qator loyihalarni amalga oshirish orqali axborot texnologiyalarini tatbiq etish hozirgi zamon talabidir. Avstraliyaning Janubiy Kvinslend universiteti (University of Southern Queensland), Ispaniya Milliy masofaviy ta'lim universiteti (Universidad de Education a Distancia) kabi oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim jarayonining eng muhim jihati – masofaviy ta'lim oluvchi talabalarga fanlar bo'yicha ma'lumotlarni elektron resurslar asosida taqdim etish borasidagi tajribalar jahon ta'lim tizimini rivojlantirishda muhim tajriba sifatida qayd etilmoqda.

Dunyoda ta'limni rivojlantirishning asosiy vazifalaridan biri turli bosqich ta'lim jarayonida faoliyat yuritayotgan mutaxassislarning kompetentligini shakllantirish va rivojlantirishdir. Pedagogik nazariyasi va amaliyoti nuqtai nazaridan xalqaro tajribalarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, unda innovatsiyalarni ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etib, didaktika prinsiplarini ilmiy-nazariy-metodik nuqtai nazardan asoslagan holda tadqiqot ishlari olib borilayotganligini kuzatishimiz mumkin. Xorijiy ta'lim muassasalari onlayn o'quv portallarini mazmunan va strukturaviy jihatdan tahlil qilish ularda yillar davomida ishlab chiqilgan hamda sinovdan o'tkazilgan amaliy o'quv va ta'lim resurslari bazasi shakllanganligini ko'rsatadi.

Mamlakatimiz oliy ta'limida hozirgi vaqtda tahsil jarayoni axborot-ta'lim muhiti orqali amalga oshirilmoqda. Uning asosini turli xil ta'lim resurslari: elektron kutubxona, video va on-layn kurslar, elektron darsliklar hamda ular asosida yaratiladigan elektron axborot ta'lim resurslari tashkil etadi¹. Zamonaviy ta'lim shaxs, jamiyat va davlat talablariga mos bo'lishi lozim. Shu bilan birga ta'lim olishni istovchilarni jamiyatda ijtimoiy moslasha olishi hamda mukammallikka erishishi uchun mustaqil ta'lim olishga tayyorlash kerak bo'ladi. Fikrlash tarzi erkin, o'z faoliyati natijasini oldindan ko'ra biladigan va ta'lim jarayonini modellashtira oladigan pedagog o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishishi kafolatlanadi². Ayni paytda mahoratli, kreativ fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan zamonaviy kadrlarni tayyorlashga qodir bo'lgan pedagoglarga talablar oshib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF–4947-son “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”, 2019-yil 29-apreldagi PF–5712-son “O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ–2909-son “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”, 2017-yil 27-iyuldagi PQ–3151-son “Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning “O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF–5712-son Farmoni. 2019-yil 29-aprel. www.lex.uz.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ–2909-sonli qarori. www.lex.uz.

va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"³gi, 2024-yil 16-oktabrdagi PF-158-son "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlarida hamda pedagogik faoliyatni tashkil etish va rivojlantirishga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Respublikamizda ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy axborot-texnologiyalari va elektron ta'lim texnologiyalarini tatbiq etgan holda tahsilni amalga oshirish bo'yicha A. Abduqodirov, U. Begimqulov, A. Haitov, P. Shoymardonov, A. Ibragimov, D. Sharipova, X. Ibragimov, N. Shodiyev, M. Yuldoshev va boshqalar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish masalalari yurtimiz olimlaridan R.X. Djurayev, Sh.M. Zufarov, S. Turg'unov, J. Fozilovlar, masofaviy ta'lim texnologiyalari masalalari MDH olimlaridan A.A. Andreev, I.G. Zaxarova, E.S. Polat, I.V. Robert, A.V. Xutorskoy va boshqa tadqiqotchilarning ishlarida o'z aksini topgan.

Xorijiy davlatlar olimlari Dj. Dyui, T. Kono, G. Kuns, M. Meskon, R.M. Bernard, R. Schmid, R.M. Tamim, F.K. Abrami, K.A. Wade, M.A. Surkes, R.D. Owsten, G. Alan, M. Gulliverlar mazkur sohada izlanishlar olib borganlar.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya O'zbekiston-Finlandiya pedagogika institutining ilmiy tadqiqot ishlari rejasining № Sped-01 raqamli "Uzluksiz ta'limni rivojlantirishning zamonaviy strategiyalari" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi pedagogik yo'nalish talabalari uchun pedagogik ta'limiy resurslarini yaratishning didaktik tamoyillarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ta'lim resurslarini konstruksiyalash jarayonining mazmunini aniqlashtiruvchi va meyorlashtiruvchi didaktik prinsiplar asosida ochib berish;

didaktik tamoyillar asosida pedagogik ta'limiy resurslarni ishlab chiqish metodikasini takomillashtirish;

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning PQ-3775 "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" qarori. www.lex.uz

didaktik tamoyillar asosida pedagogik ta'limiy resurslarni tayyorlash jarayonining funksional modelini takomillashtirish;

didaktik tamoyillar asosida takomillashtirilgan pedagogik ta'limiy resurslardan foydalanish samaradorligini aniqlashtirish.

Tadqiqot obyekti pedagogik ta'limiy resurslarini yaratishda talabalarda didaktik prinsiplardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlarida O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Nukus innovatsion instituti, Jizzax davlat pedadogika universitetlarining 484 nafar respondent-talabasi ishtirok etgan.

Tadqiqot predmeti pedagogika instituti talabalari uchun elektron axborot ta'lim resurslarini konstruksiyalash shartlari, shakllari, metod va vositalaridan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotni olib borish davomida tahlil, sintez, natijalarni tizimlashtirish, modellashtirish, matematik statistika metodlari; pedagogik kuzatuv; qiyosiy tahlil qilish; pedagogik eksperiment kabi metodlardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilar:

ta'lim resurslarini konstruksiyalash jarayonining mazmuni pedagogika ixtisosliklari talabalari uchun yaratiladigan pedagogik ta'limiy resurslarini konstruksiyalash bosqichlarini ishlab chiqish, mazkur bosqichlarni amalga oshirishda aniqlashtiruvchi va meyorlashtiruvchi didaktik prinsiplarga ustuvorlik berish asosida ochib berilgan;

didaktik tamoyillar asosida pedagogik ta'limiy resurslarni tayyorlash metodikasi o'quv materiallari optimal variantlarini tanlab olishning didaktik talablarini aniqlashtirish hamda variativlik, adaptivlik, sinxronlik tamoyillarga ko'ra ta'lim resurslarini differensiallash asosida takomillashtirilgan;

didaktik tamoyillar asosida pedagogik ta'limiy resurslarni tayyorlash jarayonining modeli ta'lim resurslarini tarkiblashtirishga doir talablar individual ta'lim trayektoriyalarini prognostik loyihalash hamda mustaqil ta'limni konstruksiyalash imkoniyatlarini ta'minlovchi assotsiativ va integrativ pedagogik yondashuvlardan ratsional foydalanishga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan;

didaktik tamoyillar asosida pedagogik ta'limiy resurslarni tayyorlash jarayonining samaradorligi pedagogik ta'lim resurslarini konstruksiyalash, talabalar mustaqil o'quv-bilish faoliyatini tashkillashtirish hamda ularning funkcionalligini ta'minlovchi illyustrasiyalar va multimediyalar kabi didaktik interfaol dasturiy tizimlarni ta'limiy maqsadlarga ko'ra modifikatsiyalash asosida aniqlashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Oliy ta'lim muassasalarining pedagogika ixtisosliklari talabalari uchun yaratiladigan pedagogik ta'limiy resurslarini konstruksiyalash bosqichlari, didaktik prinsiplari, foydalanish ssenariylari ishlab chiqilgan.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalar uchun o'quv materiallarini optimal variantlarini tanlashning didaktik tamoyillari taqdim etilib ulardan amaliy faoliyatda foydalanish uchun "Matematik tasavvurlarni shakllantirish nazariyasi va metodikasi" nomli o'quv qo'llanma yaratildi.

Oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun pedagogik ta'limiy resurslarini tarkiblashtirishning tamoyillari, yakka tartibdagi ta'lim trayektoriyalari imkoniyatlari,

hamda talabalar mustaqil ta'limini nazoratini tashkillashtirishni ta'minlovchi o'quv materialini tarkibiy tuzilmasi ishlab chiqilgan;

Oliy ta'lim muassasalari talabalari va pedagoglari uchun o'quv-metodik majmualar tarkibida pedagogik ta'limiy resurslari foydalanish funksiyalari, foydalanish ssenariylari, mustaqil o'quv-bilish faoliyati sxematik tashkillashtirish usullari takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi nazariy-metodologik holatlarning taqdim etilish mantig'i; konseptual metodologik yondashuvlar; metodlar majmuasining dissertatsion tadqiqot ishini maqsadi va vazifalariga mosligi, miqdoriy va sifat nuqtai nazaridan olingan ma'lumotlardan tahlilda foydalanish, tadqiqot natijalarini tajriba-sinov ishlari orqali tekshirib ko'rish va olingan natijalarni matemati-statistik metodlar yordamida qayta ishlash bilan ta'minlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki: taklif etilayotgan didaktik tamoyillar va pedagogika instituti talabalari uchun pedagogik ta'limiy resurslarini konstruksiyalash bosqichlarining ifodalanishi zamonaviy elektron axborot ta'lim resurslarini yaratish va foydalanish jarayonini aniqlaydi, hamda axborot-ta'lim muhitida ta'lim nazariyasini yaratish holatlariga hissa qo'shadi. Tadqiqot natijalari ta'lim vositasi sifatida darsliklar haqidagi tasavvurlarni kengaytiradi, darslikni o'quv jarayonining modeli sifatida tushunilishiga aniqlik kiritadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati: amaliy faoliyatda mavjud pedagogik ta'limiy resurslaridan foydalanish ta'lim oluvchilarda moslashuvchanlik ko'nikmasini shakllantiradi; internet tarmog'idan ta'lim olish nuqtai nazaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi, pedagogik ta'limiy resurslarini yaratish va ularni tarmoqda joylashtirish, foydalanishni tashkil etishning pedagogik yo'llari ishlab chiqilganligida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Pedagogik ta'limiy resurslarini yaratishning didaktik tamoyillarini takomillashtirish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida:

ta'lim resurslarini konstruksiyalash jarayonining mazmuni pedagogika ixtisosliklari talabalari uchun yaratiladigan pedagogik ta'limiy resurslarini konstruksiyalash bosqichlarini ishlab chiqish, mazkur bosqichlarni amalga oshirishda aniqlashtiruvchi va meyorlashtiruvchi didaktik prinsiplarga ustuvorlik berish asosida ochib berilganigiga oid taklif va tavsiyalardan "Pedagogik mahorat" nomli darslikni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 25-avgustdagi 391-son buyrug'i bilan tasdiqlangan 391201-sonli nashr guvohnomasi). Natijada pedagogik ta'lim jarayonida talabalar pedagogik, psixologik va metodik tayyorgarligini takomillashtirish jarayonini elektron axborot ta'lim resurslari orqali loyihalash imkoniyatlari oshirilgan;

didaktik tamoyillar asosida pedagogik ta'limiy resurslarni tayyorlash metodikasi o'quv materiallari optimal variantlarini tanlab olishning didaktik talablarini aniqlashtirish hamda variativlik, adaptivlik, sinxronlik tamoyillarga ko'ra ta'lim resurslarini differensiallash asosida takomillashtirilganligiga oid ilmiy metodik natijalardan A-1-173 "Yoshlarni umummilliy qadriyatlarimizga xos tarbiyasini shakllantirish texnologiyasi va metodikasini ishlab chiqish" mavzusidagi amaliy loyihasida foydalanilgan (Qarshi davlat universitetining 2023-yil 02-avgustdagi

04/2749-sonli malumotnomasi). Natijada bo'lajak o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish jarayonini umummilliy qadriyatlarga muvofiq pedagogik ta'limiy resurslari bilan boyitish imkoniyati paydo bo'lgan;

didaktik tamoyillar asosida pedagogik ta'limiy resurslarni tayyorlash jarayonining modeli ta'lim resurslarini tarkiblashtirishga doir talabalar individual ta'lim trayektoriyalarini prognostik loyihalash hamda mustaqil ta'limni konstruksiyalash imkoniyatlarini ta'minlovchi assotsiativ va integrativ pedagogik yondashuvlardan ratsional foydalanishga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilganligiga oid ilmiy metodik natijalardan "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, integratsiyasi va innovatsiyasi" nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining (2023-yil 25-avgustdagi 391-son buyrug'i bilan tasdiqlangan 391201-sonli nashr guvohnomasi). Natijada, talabalar mustaqil ta'limi nazoratini ta'minlovchi o'quv materiallari tarkibiy tuzilmasi hamda yakka tartibdagi ta'lim trayektoriyalarini ishlab chiqish imkoniyatlari oshirilgan;

didaktik tamoyillar asosida pedagogik ta'limiy resurslarni tayyorlash jarayonining samaradorligi pedagogik ta'lim resurslarini konstruksiyalash, talabalar mustaqil o'quv-bilish faoliyatini tashkillashtirish hamda ularning funkcionalligini ta'minlovchi illyustratsiyalar va multimediyalar kabi didaktik interfaol dasturiy tizimlarni ta'limiy maqsadlarga ko'ra modifikatsiyalash asosida aniqlashtirilganligiga doir xulosalar 60110100 – Pedagogika ta'lim yo'nalishining malaka talablari mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2025-yil 21-fevraldagi 02/01-01-70-raqamli ma'lumotnomasi). Natijada, talabalarni pedagogik ta'lim jarayoniga tayyorlash jarayonining metodik ta'minotini elektron ta'lim resurslari orqali takomillashtirish imkoniyati oshgan.

Tadqiqot natijalarining aprobsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro, 4 ta respublika ilmiy–amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazildi.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi yuzasidan jami 17 ta ilmiy-uslubiy ishlar chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola jumladan, 3 tasi xorijiy jurnallarda 4 tasi respublika jurnallarida chop ettirilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adbiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 137 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati ochib berilgan, ularni amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va tuzilmasi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Axborot-ta'lim muhitida elektron axborot ta'lim resurslarini yaratishning nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida

pedagogik ta'lim resurslarini yaratish muammosining nazariy aspektlari, pedagogik ta'limiy resurslar mazmunini tanlash ularni yaratishda foydalaniladigan didaktik tamoyillar tavsiflari yoritilgan.

Pedagogik ta'limiy resurslarini ahamiyati o'zgarib borishining tarixiylik nuqtayi nazaridan tahlili, axborot-ta'lim muhitida elektron axborot ta'lim resurslaridan foydalanishning mazmun-mohiyati, didaktik imkoniyatlari va ulardan ta'lim jarayonida foydalanishning o'ziga xos aspektlari yoritilgan.

Globalashuv jarayonini boshdan kechirayotgan ta'lim tizimi darsliklarga majmuaviy axborot modeli sifatida qaramoqda. Ma'lumki, ta'lim bilan bevosita bog'liq bo'lgan modellar to'rtta elementni o'z ichiga oladi: ta'lim maqsadlari, mazmuni, didaktik tamoyillari asosida ta'limning ma'lum bir turini tanlash va ishlab chiqish, matnlarni tahlil qilish hamda ularni tushunish uchun zaruriy elementlarni ajratish.

Taktik vazifalarni belgilab beruvchi o'quv jarayonining "strategik modeli" sifatida, keyinchalik fanni o'quv-tarbiya jarayonida darslik roli alohida ta'kidlanib, predmetni o'qitish jarayonida ta'lim-tarbiya konsepsiyasi ishlab chiqilgan.

Bunda bosma nashr va ilgari ma'lum bo'lgan pedagogik vositalar yordamida amalga oshirib bo'lmaydigan muammolarni hal qilish uchun kiritilishi lozimligi qayd etildi. Ya'ni AKT yordami kerak bo'lgan holatlarda ulardan foydalanib, o'quv faoliyatini tashkil etish kerak. Ta'lim berish va ta'lim olish jarayonlari uyg'un holda tashkil etilsa hamda bunda zamonaviy AKT vositalari qo'llanilishi o'zini har jihatdan oqlaydi.

Ta'lim jarayoniga kirib kelgan yangi axborot texnologiyalari vositalari bir qancha imkoniyatlarga ega: foydalanuvchi va yangi axborot texnologiyalari vositalari o'rtasidagi tezkor qaytar aloqani shakllantiradi; haqiqatda va "virtual" sodir bo'ladigan jarayonlarni kompyuterda vizuallashtiradi; yetarlicha ulkan hajmdagi ma'lumotlarni uzatish, shuningdek, asosiy ma'lumotlar omboriga foydalanuvchining oson murojaat qila olish imkoniyatini yaratadi; zarur axborotni izlash jarayonini avtomatlashadi hamda axborotni takrorlash va uni qayta ishlash imkoniyatini beradi; axborot-metodik ta'minoti, ta'lim oluvchilarining o'zlashtirish ko'rsatkichlarini nazorat qilish jarayonlarini avtomatlashtirish imkonini beradi.

O'quv jarayonini intensivlashtirishni o'z ichiga olgan yangi axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanishning pedagogik maqsadlari qayd etilib, ular uslubiy maqsadiga ko'ra dasturiy vositalar: ta'limga tegishli, trenajerlar, nazorat qiluvchi, axborot-qidiruv yoki axborot-ma'lumotli, imitatsion, modellashtiruvchi, namoyish etuvchi, ta'limiy o'yinlar kabi tiplarga ajratilgan.

Bugungi kunga kelib, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta'lim jarayonining muhim qismi sifatida qo'llanilmoqda hamda bu sohada yaratilayotgan darsliklar axborot-ta'lim muhitining so'nggi yutuqlaridan foydalanilgan holda yaratish zarurligini kun tartibiga qo'yimoqda. Bu esa yaratilayotgan darsliklar o'quv jarayonining tashkil etilishi bilan bog'liqligini ko'rsatdi va darsliklarga qo'yiladigan talablar ham kuchaytirildi.

Zamonaviy axborotlashgan ta'lim muhitida talabalar nafaqat bilim, ko'nikma va malakalar egallashlari, balki ularga fan sohalariga qarab yangi turdagi kompetensiyalarga ega bo'lishlari zarurati tug'ildi. Maktabda ta'lim olayotgan o'quvchi yoki OTM talabasi endilikda ta'lim obyektlari emas, balki

“Hech bo‘lmaganda qisman o‘z ta‘lim traektoriyasini aniqlashga qodir bo‘lgan” axborot ta‘lim muhitida bunday imkoniyatga ega o‘quv jarayonining to‘laqonli subyektlaridir. Didaktika talab etadigan barcha nazariy jihatlarni va unda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni umumlashtirish – axborot jamiyatida ta‘lim berish uchun asos bo‘ladi.

Didaktika talab etadigan barcha nazariy jihatlarni va unda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni umumlashtirish – axborot jamiyatida ta‘lim berish uchun asos bo‘ladi. Mazkur o‘zgarishlarni ta‘limga tatbiqlari ustida olib borilgan tadqiqotlar natijasida uchta tezis taklif etilgan: ta‘lim berishning asosida kompetensiyaviy yondashuv yotadi; axborot-ta‘lim muhitida ikkita subyekt harakat qiladi – pedagog va talaba; ta‘lim o‘zgaruvchan bo‘lib, u har bir talabaning o‘z ta‘lim trayektoriyasi bo‘ylab harakatlanishini nazarda tutadi.

Yangi avlod darsliklarini yaratishga qo‘yiladigan talablar asosida quyidagi didaktik qoidalarni muhim deb ko‘rsatamiz:

tanlangan materialning o‘qitiladigan predmetga mosligi; yaratilajak darslikda bilim, faoliyat usullari, ijodiy tajriba va qadriyatli faoliyat komponentlarining mavjudligi;

o‘qitiladigan materialni tanlashda fanning mazmuni bilan bir qatorda talabalar tomonidan uni qay tariqa o‘zlashtirilishi hisobga olinishi;

darslikdan talaba individual tarzda yoki jamoaviy tartibda foydalanish imkoniyatini ta‘minlash;

ta‘lim oluvchilarga darslik matniga kiritilgan materiallar bilan birga o‘z o‘quv materiallarini yaratish imkoniyatini ham berish;

darslikka ushbu vaziyatlarda yuzaga keladigan turli xil muammolarni shakllantirish va hal qilish uchun hayotiy vaziyatlarni tavsiflovchi materiallarni ham kiritish.

Shunday qilib, elektron darslik tushunchasi o‘rnini asta-sekinlik bilan elektron axborot ta‘lim resurslari (EATR) tushunchasi egallay boshladi. Pedagogik ta‘limiy resurslarning vazifasiga an‘anaviy darsliklar bajargan barcha asosiy vazifalar yuklatiladi.

Elektron o‘quv nashrining alohida turi sifatida elektron darslik maqsadiga ma‘lumot uzatish, amaliy mashg‘ulotlar va attestatsiya uchun ko‘rinishlariga ajratiladi.

Trenajerlar, ma‘lumotnomalar, turli test tizimlari va boshqalardan tashqari, elektron darsliklarni o‘z ichiga olgan elektron axborot ta‘lim resurslari: interfaollik, multimediyalilik kabi yangi pedagogik vositalaridan foydalanish imkoniyatini beradi.

Pedagogik ta‘limiy resurslarini yaratishga qo‘yiladigan didaktik talablar bilan birga uzluksiz ravishda o‘zgarib turuvchi holatlarni ham e‘tibordan chetda qoldirmaslik lozim, bu esa talablarning, ayniqsa, texnik va dizayn-ergonomik talablarni uzluksiz ravishda o‘zgartirish zaruratini keltirib chiqaradi. Pedagogik ta‘limiy resurslariga, shu jumladan, elektron darsliklarga dizayn-ergonomik talablar ko‘pgina tadqiqotlarda batafsil ishlab chiqilgan.


Elektron darslik ta‘limga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ehtiyoj sifatida kirib kelganligidan undan o‘quv jarayonida foydalanishning didaktik imkoniyatlari oxirgi yillarda himoya qilingan dissertatsion tadqiqotlarda nazariy jihatdan o‘rganilmoqda.

Elektron darslik yordamida ta'limni yakka tartibda tashkillashtirilish ko'pgina ilmiy-metodik izlanishlarda o'z ifodasini topgan. AKTning imkoniyatlari barcha o'quvchilarga yuqori ta'lim darajasiga erishish imkonini berishdan iboratdir.

Pedagogik ta'limiy resurslarining mazmunini tanlash va tarkibiy tuzilmasini ishlab chiqish didaktik modelga hamda foydalanuvchilar auditoriyasiga mos keladigan talablar asosida amalga oshishi maqsadga muvofiq. Pedagogikada yuqorida keltirilgan qoidalarni inobatga olish OTM pedagogik ta'limiy resurslarini yaratishning ssenariyli yondashuvi deb qabul qilingan. Bunga ko'ra o'quv materialini tuzish jarayoni, pedagogik ta'limiy resurslar normallashtiradigan didaktik tamoyillar ushbu yondashuv asosida shakllanadi. Bundan elektron darslik ko'p funksional tamoyilga ega, degan xulosa kelib chiqadi.

Tahsil jarayonida talabalar tomonidan taqdim etilayotgan materialni anglash, tushunish va uni o'zlashtirish test savollari, mustaqil ta'lim jarayonida o'zlashtirilgan axborotlar hamda bevosita nazorat topshiriqlariga bog'liqdir. Ta'limiy masalalarni hal qilish orqali talabalarda mavzuga oid bilim hamda ko'nikmalar yuzaga keladi. Talaba ta'limiy masalalarni hal qilish jarayonida yo'naltiruvchi savollarga javob beradi, keltirilgan havolalarni o'qib ko'radi va topshiriqni mustaqil yechadi. Nazorat uchun berilgan topshiriqlar so'zsiz talaba tomonidan izohlarsiz bajarilishi kerak, natijada esa talaba topshiriqni qanday yechganiga qarab baholanadi.


Ta'lim jarayoniga qo'llash mumkin bo'lgan ssenariylardan birining sxemasi 1-rasmida ko'rsatilgan.



1-rasm. Elektron axborot ta'lim resurslaridan foydalanish ssenariysining asosiy blok sxemasi.

EATRLari elektron shakldagi ma'lumot izlashda juda qo'l keladi hamda kam vaqt talab etadi, shu sababli foydalanuvchilar uchun (pedagog va talaba) ma'lumotlar ombori vazifasini o'taydi. Ma'lumotlar ombori ko'rinib turganidek, bosma nashrlarning elektron talqinlaridan u yoki bu jihati bilan farqlanadi. EATR o'zgaruvchan interfaol mundarija va giperhavolalar tizimiga ega, bu esa qisqa vaqt ichida kerakli ma'lumotlarni topishga yordam beradi.

Pedagog talabaga bilim berishi bilan bir qatorda uning bilimini bevosita va masofadan turib nazorat qilishi muhim. Pedagog pedagogik ta'limiy resurslar yordamida talabalar bilimini bevosita va masofadan turib nazorat qilish, talabalarning bajargan vazifalari statistikasini dinamik tahlil qilish imkoniyatida ega. Pedagog tomonidan pedagogik ta'limiy resurslardan foydalanish senariylarining murakkablik darajasi va ularni amalga oshirishning avtomatlashtirilgan jarayoni 2-rasmda ko'rsatilgan.



2-rasm. Pedagog tomonidan elektron axborot ta'lim resurslaridan foydalanishning shakli.

Dissertatsiyaning “**Didaktik tamoyillar asosida elektron axborot ta'lim resurslarini yaratishning takomillashtirilgan metodikasi**” deb nomlangan ikkinchi bobida elektron axborot ta'lim resurslarini yaratilishining taxliliy

aspektlari, mashg'ulot bosqichlarida dasturiy ta'minotdan foydalanishning o'ziga xos shart-sharoitlari haqida fikr yuritilgan.

Pedagogik ta'limiy resurslari oliy o'quv yurtlarida ko'plab fanlarni o'rganishda eng muhim ta'lim vositasi, ta'lim tizimida o'qitiladigan fanlardan EATR yaratilish strukturasi haqida fikr yuritilgan.

Ta'limdagi har qanday resursni tuzish uni tarkibiy qismlarga ajratishdan boshlanadi. Bunda oliy ta'lim o'quv maskanlarida EATR uchun yaxlit dasturiy ta'minot tizimi asosan quyidagi jihatlar bo'yicha tuziladi: o'quv materialining mazmunini baholash; dasturda didaktik va uslubiy vazifalarni aks ettirish; dasturni amalga oshirish tamoyillari hisoblanadi. Ular pedagog-o'qituvchilarni tayyorlashda alohida ahamiyat kasb etadi.

Darslikning tarkibiy komponenti tushunchasiga shunday ta'rif berilgan: "Darslikning tarkibiy komponenti deganda, u mazkur darslikning boshqa tarkibiy qismlari bilan yaqin aloqada va ma'lum bir shaklga ega bo'lgan holda o'z vazifalarini faqat o'ziga xos vositalar orqali bajaradigan zarur tarkibiy blok tushuniladi". Darslikning strukturaviy tuzilishini matnlar, matndan tashqari komponentlar va o'quv materiali taqdimoti tashkil etadi.


Darslik tuzilishida asosiy yukni bajaruvchi qism - bu matndir. Chunki unda darslikning asosiy mazmuni o'z aksini topadi. Bundan tashqari, matn o'quv materiallarining izchil va batafsil taqdim etilishi hamda asoslanishini ta'minlaydi. Matn kerakli ma'lumotlarning tashuvchisi sifatida ta'lim mazmunining mohiyatini tashkil etadi.

O'quv materialini yuqori tartibli tuzilma ko'rinishida yaratish uchun ma'lumotnoma apparatini yaratish ham zarur. Ma'lumotnoma apparati mantiqiy o'zaro bog'liqlik hisobiga yaratilgan mundarija, sarlavha, paragraflar, mavzu nomlarini o'z ichiga oladi. Ma'lumot apparati kerakli ma'lumotlarni tezkor qidirish, gipermatn, "talaba-pedagog" aloqasini ta'minlash imkonini beradi.

O'quv materiali mazmunini amalga oshirish shakli sifatida EATR tuzilishi an'anaviy darslik tuzilmasidagi matndan tashqari komponentlar rolini sezilarli darajada kuchaytiradi. Amaliy-faoliyatli bosqichda asosiy holat EATRLarga moslashuvchanlikni rivojlantirish hamda EATRLarni mustaqil ravishda yaratilishidir. Shubhasiz, yaratilgan EATRDan foydalanish, moslashtirish va yaratish jarayonida o'qituvchi resurslar bilan ishlashda ham, o'qitishda ham ma'lum tajriba to'playdi.

Akmeologik bosqichda interfaol ta'lim birinchi darajali ahamiyatga ega bo'lib, u oldingi ikki bosqichga xos emas. Interfaol ta'limning asosiy tamoyili yangi tajribani shakllantirishdan uni qo'llash orqali uning nazariy tushunchasigachadir. Kasbiy kompetensiyani shakllantirish texnologiyasini ko'rib chiqishni yakunlab, uning shakllanish yo'nalishlari o'rtasidagi bog'liqlikni model shaklida ko'rsatamiz (3-rasm).

Pedagogika fani doirasidagi ixtisoslik fanlarini o'qitishda o'rganilayotgan tushunchalar tizimi yagona tizimga birlashgan holda pog'onali munosabatlar asosiga quriladi. Muayyan pedagogik tushunchalar va ular bilan bog'liq tasavvurlarni shakllantirishda o'quv dasturiy modulidan foydalanish yetarli bo'lmog'i kerak.



3-rasm. Pedagogik ta'limiy resurslarni yaratishda talabalarda didaktik tamoyillarga amal qilish ko'nikmalarini shakllantirish modeli.

Pedagogik ta'limiy resurslari tarkibidagi modullarning har biri paragraflarga ajratilgan standart bloklar to'plamidan iborat bo'lishi kerak.

Moduldan o'rin olishi lozim bo'lgan bo'limlar quyidagilar:

nazariy manba materiallari yoritiladigan axborot bo'limi;

axborot bo'limida yoritilgan matnning mazmunini obrazli yoritishga, to'ldirishga xizmat qiluvchi ma'lumotlardan iborat illyustrativ (ya'ni namoyish etuvchi) bo'lim;

talabaniing bilimini nazorat qilishga xizmat qiladigan topshiriq va savollar majmuasidan iborat nazorat bo'limi.

Pedagogik ta'limiy resurslar o'z tabiatiga ko'ra, statik bo'lgan matn va suratlardan iborat bo'lmaydi, balki u ba'zi dinamik, dastur tomonidan boshqariladigan komponentlarni ham o'z ichiga olishi kerak.

Pedagogik ta'limiy resurslarning strukturasi shakllantirish va dasturiy ta'minotini amalga oshirishda nazariy ma'lumot materiallari taqdim etilishi bilan bir qatorda, interaktiv aloqaga asoslangan pedagog-talaba aloqasini o'rnatish imkoniyatini ham ta'minlash zarur. Pedagogik ta'limiy resurs fanning mazmunini ifodalashi bilan birga, bu mazmunning har bir qismi uchun didaktik ta'lim siklining to'liq va uzluksiz ishlashiga zamin yaratishi kerak.

Pedagogik ta'limiy resurslarini tuzishda 5 asosiy bosqich taklif etilgan:

ijodiy jamoani shakllantirish;

o'qitishning maqsad va mazmunini aniqlashtirish;

resursning psixologik-pedagogik modulini yaratish;

resursni dasturiy ta'minot shaklida amalga oshirish;

ishlab chiqilgan resursni test sinovidan va aprobasiyadan o'tkazish, qo'shimcha ravishda barcha kerakli hujjatlarni shakllantirish.

Shakl va maqsad mazmuniga ko'ra, uyg'unlashgan pedagogik ta'limiy resurslar ma'lum fanni o'qitishning metodik tizimi doirasidaga barcha talablarga ham to'la javob bera olishi kerak.

Pedagogik ta'limiy resurslarining strukturasi va mazmun tuzilishini ishlab chiqish jarayoni takroriy xarakterga ega.

Pedagogika sohasiga oid ta'limiy resurslarini yaratishda vositali (instrumental) tizimlardan foydalanish yaxshi samara beradi. Albatta, ularni qo'llash ba'zan yaratiladigan Pedagogik ta'limiy resurslar samaradorligini pasaytiradi, ammo muqobili sifatida resurslarni ishlab chiqishda dasturlash tillaridan foydalanish ishlab chiqilgan tizim samaradorligini ko'paytirishga xizmat qilishi tayin. Darslik ishlanmaning qiymati olingan samaradorlikka ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi.

Ta'lim sohasiga yangi innovasion texnologiyalar joriy qilinishining dolzarbligini yaxshi anglagan soha mutaxassisarlari tomonidan ko'plab multimediyali dasturiy mahsulotlar yaratildi. Mazkur dasturiy vositalar kreativ testlar, mashqlar, turli xil topshiriqlar, didaktik o'yinlar ko'rinishida mavjud bo'lib, ta'lim sifatini yanada oshirishga xizmat qilib kelmoqda.

Bilimlarni aks ettirishning mantiqiy fikrlash uchun xos bo'lgan obyektlarni ham, obrazli fikrlash bilan ishlaydigan vositalar bilan uyg'unlikdagi tasvir-rasmlarni ham tasvirlash mumkin bo'lgan modellarni yaratish talab etiladi

Matnli tavsiflarni topishga yo'naltirilgan bilimlarni tartibga solishga qaratilganligi zamnaviy ta'lim resurslarining muhim sifatidir.

Tasviriy ta'lim resurslari tasvirlardan kuzatilayotgan suratlar dinamikasi ortida yashiringan mexanizm-jarayonlar haqidagi dastlabki taxmin variantlarini aniqlashga qaratiladi.

Nazariy adabiyotlar sharhidan ma'lum bo'ladiki, axborot texnologiyalar asosida tashkil qilingan darslarda quyidagi ta'lim tamoyillariga amal qilinishi kerak:

- darsda nega AKTni qo'llash kerakligini to'liq anglab olish;

- dars maqsadini to'g'ri qo'yish (natija bilan maqsad mos kelishi kerak);

- o'rganilayotgan material mazmuni va o'quv ma'lumotlarini yetkazishda axborot texnologiyalardan foydalanishning afzalligini tushunish;

- darsda qo'llanadigan axborot texnologiya vositasini boshqa texnik o'qitish vositalari bilan birgalikda qo'llash;

- darsda qo'llaniladigan axborot texnologiyalarini o'quv material mazmunidan kelib chiqish tanlash;

- dars mavzusining asosini tashkil etuvchi materialning fundamental asoslarini aniqlash hamda talabalar bilan birgalikda tahlil qilish.

Multimediya vositalarining grafikli, tovushli, foto va video ko'rinishga ega axborotlarining bir vaqtda ta'siri hisobiga bunday vositalar katta emotsional kuch bilan ta'lim mazmunini talabalarga yetkazishga xizmat qiladi.

Talabalar foydalanishi mumkin bo'lgan multimedia dasturiy vositalari quyidagi turdagi o'quv ishlarini amalga oshiradi:

- o'quv materialini vizual ko'rish;

- topshiriqlar va mashqlar yordamida nazariy qismni mustahkamlash;

- turli shakldagi nazoratlar;

- tushunilishi qiyin so'zlar lug'ati bilan ishlash;

- O'qitish tizimida AKTning eng ko'p qo'llaniladigan elementlari quyidagilar:

- kompyuter va multimedia proyektori yordamida namoyish qilinadigan elektron darsliklar va o'quv qo'llanmalar;

- interfaol doskalar;

- elektron ensiklopediyalar va ma'lumotnomalar;

- test dasturlari;

- rasmlar va illyustrasiyalarga ega DVD va CD diskalar;

- video va audio uskunalar;

- interaktiv xaritalar va atlaslar;

- interaktiv konferensiyalar va musobaqalar;

- masofaviy ta'lim uchun materiallar;

- ilmiy-tadqiqot ishlari va loyihalari;

- masofaviy ta'lim.

Umuman, o'qitish tizimida AKTdan foydalanishning ikki yo'nalishi ta'kidlanadi. Birinchi yo'nalishda AKTga fanlarining ma'lum bir sohasidagi mavzulari bo'yicha bilim beradigan kompyuter savodxonligi sifatida, ikkinchi yo'nalishda AKTga o'qitishning sifat va samaradorligini oshiruvchi vosita sifatida qaraladi.

Didaktik materiallar (topshiriqlar, diktantlar, mashqlar, misollar, referatlar va insholar) elektron shaklda taqdim etiladi (odatda oddiy matnli fayllar to'plami shaklida, rtf, doc, txt shakllarida) va ma'lum bir mantiqiy tuzilmaga birlashtiriladi.

Bilimlarni nazorat qilish tizimi dasturlari, masalan, anketalar va testlar olingan natijalarni tez, qulay, xolis va avtomatik tarzda qayta ishlash imkonini beradi.

Pedagogik ta'limiy resurslari va elektron o'quv kurslari yuqoridagi barcha yoki bir nechta turdagi o'quv dasturlarini yagona dasturiy majmuaga birlashtiradi.

Ta'limiy o'yinlar va rivojlantiruvchi dasturlari asosan maktabgacha yoshdagi bolalar va kichik yoshdagi o'quvchilarga mo'ljallangan. Ushbu turga o'yin ssenariyasi asosida tuzilgan interfaol dasturlar misol bo'ladi. O'yin davomida turli xil vazifalarni bajarib, bolalar nozik harakat malakalarini, fazoviy tasavvurni, xotirani va boshqa ko'nikmalarni rivojlantiradilar.

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib darsda turlicha vazifalarni bajarishga ixtisoslashgan dasturiy mahsulotni tanlashning quyidagi tamoyillari mavjudligini ta'kidlaymiz:

foydalaniladigan dastur pedagog va talaba uchun birdek foydalanish uchun qulay boshqarish tizimiga ega bo'lishi kerak;

o'qituvchi istagiga ko'ra material mazmunini belgilab olishi, uning faoliyati berilayotgan ma'lumotlar ketma-ketligiga emas, balki talabalarning ijodkorligini oshirishga yo'naltirilgan bo'lishi zarurdir;

taklif etilayotgan ta'lim resurslar ma'lumotlarni taqdim etishning istalgan turini (grafik, matn, sxema, jadval, diagramma, slayd, video va audio parchalar) qo'llash imkoniga ega bo'lishi kerak.

Demak, kompyuterda kerakli o'qitish dasturini tanlashda o'quv jarayonining quyidagi jihatlari e'tibor qaratish lozim:

texnik imkoniyatlar, ya'ni dasturiy ta'minot, elektron jihozlar;

ta'lim jarayonini tashkil etish shakllari;

ta'lim jarayonining raqamli texnologiyalari mavjud bosqichlari;

darsning yaxlitligini saqlash imkoniyatlari.

Demak, ta'limda raqamli innovatsion texnologiyalardan foydalanishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

ta'limga taalluqli elektron nashrlar;

